

## **HAYKALTAROSHLIK SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXI**

*Pattayev Shuhratbek Sherzodbek o'g'li*

*Mahobatli haykaltaroshlik Yo'nalishi 3 kurs*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolamda haykaltaroshlikning paydo bo'lishi ibtidoiy davrga to'g'ri kelishi, odamlarning mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liqligi haqida qolaversa, haykaltaroshlikning rivojlanish bosqichlari, O'zbekiston zamonaviy haykaltaroshlik san'atida rivojlanayotgan yangi uslublari haqida batafsil bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** Haykaltaroshlik, ibtidoiy davr, tasviriy texnologiyalar, tasviriy san'at, Kinetik san'at.*

### **Kirish**

Haykaltaroshlikning paydo bo'lishi ibtidoiy davrga to'g'ri keladi va bu odamlarning mehnat faoliyati, sehri e'tiqodlari bilan bevosita bog'liq. Ko'p mamlakatlarda topilgan paleolit davridan qolgan (Fransiyadagi Montespan, Rassiyadagi Malita, Buret va boshqalar) hayvonlar va ayollarning o'sha davrga mansub bo'lgan turli haykaltaroshlik tasvirlariga oid ilk asarlar namunasi topilgan.

Mahobatli haykaltaroshlik-haykaltaroshlikning me'morlik va shaharsozlik bilan bog'liq turi sanaladi. Mahobatli haykaltaroshlik asarlari o'zida mazmun-mohiyatni ifoda qilib, mustaqil ijtimoiy xususiyatga ega. Bevosita atrof muhit, me'moriy binolar bilan uyg'unlashtiriladi. Asarlari uzoqdan tomosha qilishga mo'jallanganligi uchun kata, yaxlit shakllardan keng foydalanadi, maydonlar, istirohat bog'lari, xiyobonlar, ko'cha va boshqalarga o'rnatiladi.

Rim haykaltaroshlari portret san'atida katta yutuqlarga erishdilar, ularning asarlarida insonning murakkab kechinmalari kuchli realizmda tasvirlandi, shaxsning jismoniy va ma'naviy holati ochiq ko'rsatildi; Rimda ilk bor otliq qo'mondon haykali ishlandi, bo'rtma tasvirda ham katta yutuqlarga erishildi: muhim tarixiy voqealarga bag'ishlab o'rnatilgan ustun va zafar toqilari voqeband bo'rtma tasvirlar bilan bezatildi. O'rta asrlar Sharq mamlakatlarida Haykaltaroshlik

hamma joyda bir xil rivojlanmadi. Janub, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari (Hindiston, Indoneziya va Hindixitoy mamlakatlari)da mahobatli, ishlanishi nafis ajoyib yodgorliklar yaratilgan bo'lsa, yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida Haykaltaroshlik amaliy bezak san'atining Haykaltaroshlik bilan chatishib ketgan tosh o'ymakorligi, yog'och va ganch o'ymakorligi, zargarlik va kandakorlik asarlarida o'z ifodasini topdi, ro'zg'or buyumlari, taqinchoqlar tayyorlashda, binolar bezagi (namoyoni)da keng qo'llandi. Yevropa mamlakatlarida xristian dini Haykaltaroshlikni rivojlantiruvchi asosiy kuch bo'ldi

O'zbek haykaltaroshligining yangi bosqichi 20-asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu davrga kelib haykaltaroshlar safi kengaydi. Haykaltaroshlikda akademik tizim shakllandi. A. Boymatov, A. Ahme-dov, D.Ro'ziboev, A.Shoymurodov, E.Aliev, H.Husniddinxo'jayev, Ya.Shapiro, L.Ryabtsev, D. Ryabichev va boshqalar. Haykaltaroshlikning barcha tur va janrlarida ijod qilib, uning ravnaqiga o'z hissalarini qo'shdilar. Monumental va monumental-bezak Haykaltaroshlik borasida qator asarlar yaratishda tosh, metall, shamot, sopol va boshqa qattiq materiallardan keng foydalaniddi. O'zbekistondagi har bir me'moriy majmua san'atlar sintezi zaminida shakllantirilishi Haykaltaroshlik rivojida muhim o'rin egalladi. Toshkent shahri, viloyatlar va tumanlar markazlarida bosh maydon, yirik xiyobon, ko'chalar va boshqa markazlarda maydonlar tashkil etildi, ularda davlat va fan, madaniyat arboblari yodgorliklar o'rnatildi: Toshkentdagi Pushkin (M.Anikushin), Samarqanddagi Alisher Navoiy va Jomiy (H.Husnid-dinxo'jaev va V.Lunev) hamda Mirzo Ulug'bek (M.Musaboev) va boshqa haykallar. Bezak Haykaltaroshlikda afsonaviy ajdaho, kiyik va qo'zichoqlar haykallari yaratilib, madaniy, ma'muriy binolarning maydonlariga o'rnatildi (Toshkentdagi O'zbekiston ba Markaziy ko'rgazmalar zali oldidagi haykallar va boshqalar, Samarqand muzeyi oldidagi ajdaho, Buxoro Inturist mehmonxonasi uchun ishlangan relief va haykallar), Favvoralarda Haykaltaroshlik ko'rinishlari o'z ifodasini topdi. Dastgoh Haykaltaroshlikning portret va animalistika janrlarida A. Boymatov, A.Shoymurodov, A.Ahmedov, aka-uka P. va M.Ivanovlar, T. Qosimov, D.Ro'ziboev, keyinroq T.To'laxo'jayev va boshqalar, qoraqalpoq

Haykaltaroshlikda J.Quttimurodov, To'raniyozov va boshqa izlanishlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. 1960-80 yillarda dastgoh Haykaltaroshlikning portret, janrli haykal va mayda plastika (haykaltaroshlik)da jonlanish sezildi, uslub va yo'nalishlari kengaydi. A. Hotamov, T.Esonov, M. Abdullaev, F. Ahmedzyanov, M.Avakyan, M.Rahmonberdiev, M.Borodina, L. Nesterovich, M. Porub, T.Yorqulov va boshqa shu yo'nalishda ijod qilib tanila boshladilar. Mustaqillik yillarida Haykaltaroshlikda yirik badiiy yodgorlik haykallar barpo etildi, ularda ajdodlarning yorqin qiyofalarini yaratishga erishildi. Bu davrda Haykaltaroshlikda yaratilgan asarning ilk namunasi O'zbekiston milliy bog'ining so'lim go'shasiga o'rnatilgan Alisher Navoiy haykali bo'lib (haykaltaroshlar E.Aliyev, N.Bandzeladze, V.Degtyarov, 1991), u atrof-muhit bilan uyg'unlikda; ramziy ma'noda barpo etilgan me'moriy qism (ayvon) shoirning mahobatli qiyofasini yanada jonlantiradi. Monumental Haykaltaroshlikda sermahsul ijod qilayotgan I.Jabborov, J. Mirtojiyev va boshqa asarlarida san'atlar sinteziga asoslangan asarlari yuzaga keldi.

Kinetik san'at (yun. Kinetikos -harakatga keltiruvchi) — harakatga keltiruvchi qurilmalar (shuningdek, yorug'lik va tovush) yordamida estetik samaraga erishish. Kinetik san'at 20-asrning 20— 30-yillarida paydo bo'lgan. Rossiyada V. Ye. Tatlin, AKShda A. Kolder va boshqa o'z asarlarining ayrim bo'lak va qismlariga harakat, siljish, parchalanish kabi xususiyatlarni kiritib, muhit bilan san'at asarining o'zaro munosabatiga yanada ta'sirchanlik baxsh etishga intildilar.

60-yillarda Kinetik san'at fransuz N. Shoffer, argentinalik X. Le Park va boshqa ijodida to'la shakllandi. Ular turli optik-akustik vositalar (mexanik kurilmalarni uzgartirish, ularga turli shakl berish, yorug'lantirish, stereo tovushlar chiqarish va h.k.) yordamida kompozitsiya yaratishga, 20-asr ilmiy texnika taraqqiyoti va inqilobini ko'rsatishga harakat qildilar. Bu san'at O'zbekistonda qisman bezash san'ati (ko'rgazmali targ'ibot) da, reklamalarda o'z ifodasini topdi.

Xulosa. Haykaltaroshlik san'ati bir ko'rinishda juda ajoyib nafis shu bilan birga murakkab san'at turi hisoblanadi. Shu sababdan ham uning tarixini o'rgangan holda zamon bilan umumlashtirib san'at asarlari yaratish maqsadli va foydali

hisoblanadi. Shundagina chinakam yetuk asar yaratish imkoniyati paydo bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. T.Esanov Haykaltaroshlik "Arxitektura" va "Dizayn" ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma Samarqand 2011
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent 2000-2005.